

**SHEKSPIR DRAMALARIDAGI KALAMBURLARI
LINGVOPOETIKASINING O'ZIGA XOSLIGI**

Mizrabova Jeren

O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati

Buxoro davlat universiteti f.f.f.d. (PhD), dotsenti

Tel: +998907122555

Annotatsiya. Ushbu maqolada Uilyam Shekspir uslubidagi kalamburning o'ziga xos lingvopoetik hususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Uilyam Shekspir o'z dramalarida kalambur va so'z o'ynidan keng foydalangan.

Kalit so'zlar. Shekspir, kalambur, tahlil, omonim, polisemiya, antonimiya, omoforma, fonetik hususiyatlar, asliyat matni.

Abstract. This article discusses the originality of linguopoetik puns in the style of William Shakespeare. William Shakespeare used puns and wordplay extensively in his plays.

Key words. Shakespeare, pun, analysis, homonym, polysemy, antonymy, homoform, phonetic properties, original text.

Аннотация. В данной статье ведутся рассуждения о своеобразии лингвопоэтических каламбуров в стиле Уильяма Шекспира. Уильям Шекспир широко использовал каламбур и игру слов в своих драмах.

Ключевые слова. Шекспир, каламбур, анализ, омоним, полисемия, антонимия, омоформа, фонетические свойства, текст оригинала.

Ma'lumki, Shekspirning so'z semantikasi va nozikliklari sohasidagi bilimlari va mahorati quvvati dramaturgning o'z ijodida kalamburdan ustamonlik bilan foydanishida qo'l kelgan. Aslida, kalambur o'tkir dramaturgning sevimli ishi yoki ijodidagi odatiy holat bo'lib xisoblangan. U. Shekspir asarlaridagi komik qahramonlar va masxarabozlari nutqlaridagi murakkab kalamburlarga to'lib – toshgan va o'zlarining yumoristik hajv qamchisi ila dunyo sahnasi va adabiyotida baralla yangramoqda. Shekspir kalamburi satirik emas balki muloyim kulgini qo'zg'atuvchi yumshoq va yumoristik tabiatga ega.

Masalan, "Qirol Lir" asari davomida Lir o'z xatosini anglab yetadi va jahl ustida Kordeliyaga qattiq nohaqlik qilganini tushunadi. Endi ho'rlangan qirolga Gonerilya va Regananing otasiga bo'lgan munosabati oldida Kordeliyaning iqrori arziyas bir ayib bo'lib ko'rinadi. Albaniy Gonerilya va otasi o'rtasidagi janjal ustiga kelib qoladi. Qirol Lir Gonerilyanining otasini behurmat qilib ho'rlashariga toqat qila olmay xudodan noqobil qiziga ham huddi o'ziday farzand ato etishini so'rab la'natlar o'qib uni qarg'aydi. G'azablangan Lir Regananing saroyiga ketishini aytib u yerda qirolga

munosib hurmat topishiga ishonadi. Ammo, Gonerilya qirol qizlariga qarshi xujum uyushtirishi mumkinligi ehtimolidan qo‘rqib singlisi bilan birgalikda otasiga qarshi til biriktirib ish ko‘rishlari lozim ekanligi va ogoh bo‘lishga chaqiruvchi xat yozib yuboradi. Turmush o‘rtog‘i Gonerilyaning bunday harakatlarini ko‘rib Albaniy malikaning oshirib yuborganligi va bunchalik vahimaga o‘rin yo‘q ekanligini tushuntirishga urinadi. Ularning suhbat chog‘ida “fear” so‘zi polisemiyasi va mazkur birlik bilan bir qatorda “fear too far” hamda “trust too far” kabi antonimiyasi qo‘llanilgan Shekspir kalamburini kuzatishimiz mumkin:

ALBANY

Well, you may fear too far.

GONERIL

Safer than trust too far:

Let me still take away the harms I fear,

Not fear still to be taken: I know his heart.

What he hath utter'd I have writ my sister... [1- el.man.]

(William Shakespeare King Lear, Act 1, Scene 4.)

Герцог Альбанский

Мне кажется, твой страх

Преувеличен.

Гонерилья

Лучше опасаться

Без меры, чем без меры доверять.

От бед спасает только осторожность.

Я знаю слишком хорошо отца

И о его словах пишу Регане. (B.Pasternak tarjimas) [2- el.man.]

Альбаний

Сенинг мунча кўркувларинг ўринсиз.

Гонерилья

Ўта лақма бўлганлқдан шу яхши;

Таҳликанинг олдин олиб қўйишлик

Хавф ичида яшандан маъқулроқ

Мен отамнинг одатларин биламан.

Айтганларни синглимга хатда ёздим... (G'.G'ulom tarjimas) [3- el.man.]

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolning so‘zma-so‘z tarjimasini keltiramiz:

Albaniy.

Bu xususda bunchalik havotirlanishing(asabiylashish) ortiqchadir balki.

Goneril’ya.

Bu masalada ortiqcha ishonchdan ko‘ra yanada ortiqcha havotir havfsizroqdir.

Biron bir zarar yetishini kutib turmasdan menga xavf tug‘diradigan barcha

narsalardan ogoh bo‘lishim kerak. (J.M.)

Ko‘rinib turibdiki asliyat kalamburida qatnashgan “fear” kabi polisemik birligining “havotirlanish”, “asabiylashish”, “havotir”, “zarar”, “havf” kabi mazmunlari faollashgan. Ya'ni, asliyatning kinoyaviy ta'sirini oshirish maqsadida kalamburdagi “fear” so‘zining lug‘aviy uzusi doirasidan tashqari mazkur leksik birligining yangi mazmuniy imkoniyatlarini yuzaga chiqrishga qulay kontekst sharoiti yaratilganligini kuzatishimiz mumkin.

Yuqorida Shekspirning “Qirol Lir” nomli mashhur piasasidan keltirilgan misolining davomida vahimaga tushgan Gonerilya Reganaga jo‘nayotgan xatni Osvaldga berayotib uni bu vazifaga qattiq ma'suliyat bilan yondashishini va tezda qaytib kelishini buyuradi. Shunda Albani Gonerilyani shunday deb ogohlantiradi:

ALBANY

How far your eyes may pierce I can not tell:

Striving to better, oft we mar what's well. [1- el.man.]

(William Shakespeare King Lear, Act 1, Scene 4.)

Герцог Альбанский

Зато вы бьете в цель неумоимо.

Смотрите лишь, не попадите мимо. (B.Pasternak tarjiması) [2- el.man.]

Альбани

Мен билмадим: сен узоқни ўйлагандирсан,

Лекин баъзан холис хизмат қилмоқчи бўлиб,

Яхши ишнинг чатоғини чиқариш мумкин. (G'.G'ulom tarjiması)

[3 - el.man.]

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolda Albani “Striving to better, oft we mar what's well.” deganida Gonerilyaning bezovta bo‘layotganini ko‘rib “Shundoq ham tuzuk (yaxshi) turgan narsani tuzataman (yaxshiroq qilaman) deb badtar uni buzib qo‘yma” mazmunidagi “to better” (yaxshilashga intilmoq, tuzatmoq) va “mar what's well” (yaxshi, tuzuk, durust narsani buzmoq) kabi kontrastlarida qurilgan kalamburida o‘zining kesatik tarzidagi kinoyasini keltiradi. Bu yerda Albani Lirning qirolligi va oilasi parokandalikka yuz tutayotganini payqab Gonerilyani agarda u otasiga qarshi fitnalarini davom ettiraversa qo‘l ostidagi bor bisotidan ajrailib qolishiga o‘zi sabachi bo‘lib qolishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantiradi.

Darhaqiqat, kalambur tarjiması amaliyotida ba'zida yengib bo‘lmas bo‘lib ko‘ringan to‘siqlarga qaramasdan asliyat matnining ta'siri, undagi implitsit ma'nolar, polisemik, omonimik va antonimik xususiyatlarni o‘z tarjimalarida qayta yaratishga harakat qilganlar. Modomiki, ishimizda tahliliga tortilgan yumorga boy tarjimalaridagi so‘z o‘yinlari o‘ziga kitobxon e'tiborini jalb eta olgan ekan ularni stilistik jihatdan o‘xshash deb ayta olamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/king-lear/entire-play/>
2. <https://predanie.ru/book/218131-korol-lir-per-boris-leonidovich-pasternak/>
3. Shekspir V. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. Qirol Lir / Rus tilidan Gʻafur Gʻulom tarjimasi. 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.– 472. b.
4. Сковородников А.П. Игра как приём текстопорождения. Красноярск: Мир. 2010. 341 с.